

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/6-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

F.Babadjanov	
O'zbek tilida ish yuritish tizimining shakllanishi va uning mustaqillik davridagi taraqqiyoti	637
Э.Х.Мустаева	
Риторическая компетенция как основа формирования профессиональной коммуникации в условиях цифровизации	641
З.А.Низомитдинова	
Сравнительная идентификация гендерного дискурса в медиасреде	647
Н.М.Каримова	
Эволюция художественного языка В. Распутина и Х. Дустмухаммада: этапы и особенности	652
Ш.Н.Саминжонова	
Современные подходы исследования когнитивных единиц языка сети интернет	657
М.Э.Турсунова	
Влияние глобализации на язык молодежи на примерах англицизмов	663
Э.И.Ибрагимова, З.Т.Исаева	
Ключевые направления эволюции русского языкознания в XXI веке: возникновение научных парадигм	666
З.Т.Исаева	
Комплексный анализ парадигматических и синтагматических структур	672
Д.О.Турдалиев	
Теория лингвистической относительности и её отражение в повести теда чана «История твоей жизни»	678
Н.Т.Ходжаева	
Современные методы преподавания русского языка как иностранного: технологии, подходы, практическая значимость	681
В.Гимадетдинова	
Анализ лингвокреативных стратегий современного медиатекста	684
Э.А.Абдуллаева	
Социокультурный анализ межкультурных коммуникаций	688
Б.Х.Абдуллаева	
Трансформация фразеологизмов в русском языке XXI века	693
У.М.Юлбарсова	
Лингвокультурные различия в восприятии концепта "Дом" у русских и узбеков	697
М.Т.Abdupattoyev	
Poetik sintaksis: ekspressiv va ekstralingvistik vositalar talqini	700
F.H.Islomova	
Matn yaratish malakasini rivojlantiruvchi metodlar	704
A.R.Dadajonov, I.T.Xojaliyev	
Muhokama nutq tipining til tizimida tutgan o'rni	707
G.A.Asomiddinova	
Stefan Sveygning "Ayol hayotidan yigirma to'rt soat" novellasida inson ruhiy olamining talqini	711
Sh.T.Axmadjonova	
Ingliz va o'zbek tillarida badiiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari	714
Sh.G.Akbarova	
Nazar eshonqulning "Tobut" va Alber Kamyuning "Vabo" romanlarining qiyosiy tahlili	717
Д.С.Усмонова	
Аксиология языка: как ценности формируют фразеологию и культурное сознание	722
A.I. Saminov	
Oksyumoron komponentlarining mazmuniy munosabati	727
M.T.Xalilova	
Zamonaviy tilshunoslikda sintaktik sathdagi mazmuniy munosabatlarning o'rganilishi xususida	732
N.A.Quldashev	
Raqamli asrda til va identifikatsiya: ijtimoiy media, online muloqot va tildan foydalanish.	736
Г.Н.Давлятова, Г.М.Мамаджанова	
Фреймовое представление лингвокультурологических единиц	739



UO'K: 82.09. 161.1. 161.2

**NAZAR ESHONQULNING "TOBUT" VA ALBER KAMYUNING "VABO"
ROMANLARINING QIYOSIY TAHLILI****СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РОМАНОВ НАЗАРА ЭШОНКУЛЯ «ГРОБ» И АЛЬБЕРА
КАМЮ «ЧУМА»****COMPARATIVE ANALYSIS OF THE NOVELS "COFFIN"
BY NAZAR ESHANKUL AND "THE PLAGUE" BY ALBERT CAMIUS****Akbarova Shaxlo Ganiyevna** 

Farg'ona davlat universiteti, katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi kunda o'zbek hikoyachiligiga kirib kelgan badiiy syujet, kompozitsiya, uslub yangilanishlari yuzasidan bir qator ma'lumotlar tahlilga tortilgan. Istiqlol tufayli milliy adabiyotimizda inson tafakkuridagi o'zgarish, davr va jamiyatdagi o'zgarish ta'sirida bugungi kunda Kamyu asarlarini tarjima qilish, tushunish va to'g'ri talqin qilish imkoniyati paydo bo'ldi. N.Eshonkul kabi adiblar G'arb modernizm adabiyoti an'analariidan o'z ijodlarida ta'sirlanib yaratilgan asarlarda voqea-hodisalar emas, insonning o'zi, uning o'y-fikrlari, alamlari, iztiroblari, ruhiyati, psixologik olami yetakchilik qilayapti, tasvirlanayapti va ochib berilayapti. N.Eshonkulning "Tobut" hikoyalari Alber Kamyu asarlari syujeti va qahramonlari bilan qiyoslandi hamda asarlarda ilgari surilgan mavzu, kontseptual g'oyalarning badiiy ifodasiga xos mushtarak va farqli jihatlariga baho berildi.

Аннотация

В данной статье сделан ряд информационных анализов относительно обновлений художественного сюжета, композиции и стиля, вошедших сегодня в узбекское повествование. Благодаря независимости, под влиянием изменения человеческого мышления, эпохи и общества в нашей национальной литературе сегодня появилась возможность переводить, понимать и правильно интерпретировать произведения Камю. Такие писатели, как Н. Эшонкул, находятся под влиянием традиций западной модернистской литературы, в их произведениях описываются и раскрываются не события, а сам человек, его мысли, боли, страдания, психика, психологический мировоззрение. Рассказы Н. Эшангула «Гроб» сопоставлены с сюжетом и характерами произведений Альбера Камю, оценены общие и различные аспекты, характерные для художественного выражения темы и концептуальных идей, представленных в произведениях.

Abstract

This article contains a number of information analyses regarding the updates of the artistic plot, composition and style that have entered the Uzbek narrative today. Thanks to independence, under the influence of changes in human thinking, era and society in our national literature today it has become possible to translate, understand and correctly interpret the works of Camus. Writers such as N. Eshonkul are influenced by the traditions of Western modernist literature, their works describe and reveal not events, but the person himself, his thoughts, pain, suffering, psyche, psychological worldview. The stories of N. Eshonkul "The Coffin" are compared with the plot and characters of the works of Albert Camus, the general and various aspects characteristic of the artistic expression of the theme and conceptual ideas presented in the works are assessed.

Kalit so'zlar: shakl, mazmun, hikoya, qahramon, retsepsiya, talqin, tasvir, hikoya, badiiy-estetik, qiyosiy tahlil

Ключевые слова: форма, содержание, сюжет, персонаж, рецепция, интерпретация, образ, сюжет, художественно-эстетический, сравнительный анализ

Key words: form, content, plot, character, reception, interpretation, image, plot, artistic and aesthetic, comparative analysis

KIRISH

O'zbek hikoyachiligi keyingi yillarga kelib o'zining rang-barangligi, qamrov ko'lamining kengligi, shakl va mazmundagi yangi jihatlari bilan yetakchi mavqega ega bo'ldi. Natijada

Mustaqillik davri o'zbek hikoyachiligi badiiy syujet, kompozisiya, uslub yangilanishlari bilan bir qatorda psixologik tasvir borasida ham salmoqli yutuqlarga erishdi [1].

Qator hikoya va qissalari bilan adabiy jamoachilikda o'z o'rniga ega bo'lgan yozuvchi va tarjimon Nazar Eshonqul ijtimoiy hayotning ba'zi jihatlarini bo'rttirib tasvirlash vositasida jamiyat hayoti haqida fikr yuritadi. N.Eshonqul hikoyarining o'zaro-ruhan yaqinligi ma'naviy-axloqiy masalalar utuvorligi bilan belgilanib, insonni badiiy tasvirlashdagi individual tafakkur tabiatining ijodiy yo'sin bilan xarakterlanadi. Hikoyalarda insonni badiiy tushunish hamda tushuntirishda yozuvchi ikki yo'nalishdan foydalanadi. Birinchi yo'nalishda, mustaqillikni orzu qilgan o'zbek xalqining ruhiy holatlari va jamiyat hayotini yoritishga harakat qilinadi. Ikkinchisi yo'nalishda esa, ezgulik, adolat tantanasi uchun to'sqinlik qiladigan ma'naviy-axloqiy illatlarni fosh etishga intilish, haqiqatning tantana qilishiga ishonmaydigan odamlar ruhiyatini ochib berish va o'rganish alohida tamoyilni tashkil etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Kamyuning "Ijod zavqi bo'lsa, do'zaxda ham qo'shiq aytish mumkin" degan gaplarini o'z hayot shioriga aylantirgan Nazar Eshonqul, hikoyalarda yangi qahramonlar, yangi qarashlar, o'ziga xos g'oyalari bilan o'zbek adabiyotiga uslubiy yangilanish olib kirdi. Nazar Eshonqul Kamyu asarlari retsepsiyasidan ta'sirlanib, ularning bir nechtasini tarjima qilib, o'zbek kitobxonlariga taqdim qilgan. Uning "Tobut" hikoyasi problematikasi, bayon uslubi bilan Kamyuning aynan "Vabo" romanini yodga soladi.

Kamyu o'z hayotiy tajribasidan ilhomlanib yozgan ba'zi romanlari o'sha davr jamiyatning haqiqiy falsafiy qiyofasini yaqqol namoyon qiladi. Masalan, kichik bir fransuz qishlog'ida sil kasalligini davolayotgan Kamyu, u yerda xolokostga qarshi zo'ravonliksiz qarshilikni ko'rdi va bu "Vabo" (La Peste) romanini yozishga ilhomlantirdi. Shuning uchun ham Kamyu "Vabo" haqidagi barcha ilmiy, tarixiy va tibbiyot kitoblarini qunt bilan mutolaa qiladi va o'rganib chiqqan barcha ma'lumotlarini badiiylashtirishni niyat qiladi. Kamyu o'zining bu shox asarini 1938-1947 yillar oralig'ida yozadi. 1941 yili asarning qoralamasi tayyor bo'ladi, lekin muallif undan qoniqmaydi va yozilgan 7 ta bobni o'chirib 10 ta yangi bobni shakllantiradi. Muallif bu asari uchun "Les Séparés" ya'ni "Ajranganlar" va "Les Prisonniers" ya'ni "Mahbuslar" sarlavhalarini tayyorlab qo'yadi, ammo romanni "La Peste" "Vabo" deb nomlashni afzal biladi. 1947 yilda Ikkinchi jahon urushi davomida yozilgan roman nashr etiladi va muallifga katta muvaffaqiyat olib keladi. Asar chop etilishi bilan 161000 nusxada sotiladi va o'quvchilar tomonidan katta qiziqish bilan mutolaa qilinadi.

"Vabo" romani voqealari O'rta Yer dengizi bo'yida joylashgan Oran shahrida vabo kasalligi tarqalishi voqeasi bilan boshlanadi. Shuning uchun shaharga kirish va chiqish ta'qiqlab qo'yiladi. Doktor Rie boshchiligidagi shifokorlarning bir guruhi vaboga qarshi faol kurash boshlaydilar. Shaharga ish yuzasidan kelgan muxbir Ramberti esa boshqa shaharda yashovchi qaylig'idan ayrilish va vabo oldidagi qurquv qiynardi. Shunga qaramasdan u doktor Rie boshchiligidagi vrachlarga yordam berar, har kuni o'lim bilan yuzma-yuz turar va u bilan kurashayotgan odamlarning matonatidan hayratlanar edi. Asta-sekin uning dunyoqarashi o'zgarib, shahardan ketishdan voz kechib, Oranda qoladi. Ko'p vaqt o'tmay doktor Rie ham kasalni yuqtirib oladi. Lekin undagi hayotiy kuch shu qadar kuchli ediki, u kasallikni yengadi. Rambert bu holatni taajjub bilan kuzatib insonni har qanday xavf-xatardan qandaydir anglab bo'lmaydigan mavhum kuch asrashiga iqror bo'ladi. Shaharda vabo asta-sekin chekinadi. Shahar axolisi hayot, umr, baxtning qadriga yetadi. Kamyu "Vabo" asaridagi o'z ishiga sodiq va hech narsadan qurqmaydigan irodali doktor Rie, o'z muxabbatidan ustun turuvchi odamlar oldidagi mas'ullik his qilgan Rambert qaxramonlari orqali insonlarni millat taqdiri haqida qayg'urishga, insoniylikka, birdamlikka va hayotda kuchli iroda, ishonch bilan yashashga chaqiradi. Kamyu bu falsafiy asarida "hayotda uchraydigan vaboga qarshi birdam kurashish mumkin, ammo insonni ichidagi vaboni hech kim davolay olmaydi" degan fikrida, yolg'onchilik va sun'iylikni nazarda tutgan. "Vabo" ustida ishlayotib adib kundaligiga shunday yozadi: "Vabo yordamida u tarqalgan paytda biz zaharlangan atmosfera va ayriliqdan qattiq azob chekkanligimizni aytmoqchiman. Shu bilan birga men bu izohni borliqqa bir butun qilib kengaytirmoqchiman" [2]. Ushbu asar retsepsiyasi ilgari natsistlariga qarshi kurash deb talqin qilingan bo'lsa, bugungi kunda esa ushbu asar hech qachon chekinmaydigan, vaqti-vaqti bilan bo'y ko'rsatib insonlarni esankiratib qo'yadigan sirli kuchni tasvirlaganligiga amin bo'lamiz. Demak,

TILSHUNOSLIK

"Vabo" - urush va fashizmning ramziy obrazigina emas, hayot asosini tashkil etuvchi absurdning o'ziga xos timsoli hamdir.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Bugungi kunda insoniyat boshidan o'tkazgan koronavirus, sirli va yashirin holat "Vabo" romani voqealari rivojida Oran shahridagi o'lat manzarasini ko'z oldimizga keltirdi deyish mumkin. Birinchi marta Xitoyning Uxan shahrida aniqlangan va butun dunyoga tarqalgan yangi kasallik "koronavirus kasalligi 2019" (COVID-19) deb nomlanganligi barchaga ma'lum [3]. Bu kasallik tez vaqt ichida butun dunyoga vabo singari tarqaldi va ko'plab oilalar o'z yaqinlarini aynan shu virus oqibatida yo'qotdilar. Natijada butun dunyoni larzaga solgan va ko'plab yo'qotishlarga sabab bo'lgan xaqiqiy vabo (virus) nima ekanligini anglab yetdik. Dunyoda koronavirus kasalligining tarqalishi sababli Kamyuning "Vabo" asariga bo'lgan talab 4 martaga oshgan. Natijada, nafaqat Fransiya va Italiyada, balki butun dunyoda millionlab kitobxonlar ushbu asarni sotib olganlar. Kamyuning "Vabo" asari mutolaasi davomida kitobxon xuddi bugungi kunda insoniyat vabodan qanday aziyat chekkan bo'lsa, shunday sahnalarning guvohi bo'ladi. Bundan kelib chiqadiki retseptient o'zi boshidan kechirgan va guvohi bo'lgan his-tuyg'ularni osonroq retsepsiya qiladi. Natijada esa Kamyu asari retsepsiyasining yangi ko'rinishlari shakllana boshlaydi va asar to'g'ri talqin qilinadi.

"Vabo" romaniga professor A.Saidov "O'lat" romani – taslim bo'lganlar emas, eng avvalo, qarshilik ko'rsatayotganlarga bag'ishlangan kitob, qaror topgan be'manilik ichida yashashdan maqsadning izlab topilishi haqidagi kitobdir," degan ta'rifni beradi [4]. Olimning bu fikrlari o'rinni albatta, chunki asar qahramonlari yashashga umid va maqsadni izlab tinimsiz harakat qilib, nafaqat o'zlarining hayotlari, balki butun shahar odamlari hayoti uchun kurashadilar. Asar bosh qahramoni doktor Rie kasallikni yuqtirib olganida ham ortga chekinmaydi va kasallarni davolashni davom ettiradi. Natijada doktor kuchli iroda va ishonch bilan kasallikni yengadi. O'lat bu faqat kasallik, yovuz ofat va faqat urushgina emas. Bu, shuningdek, sud hukmlaridagi shafqatsizlik, mag'lub bo'lganlarning otib tashlanishi, cherkovning va siyosatchilarning mutaassibliigi, aybsiz bolaning halok bo'lishi, vijdon azobi, kulfatlar va ularning qurbonlari. Muallifning o'zi e'tirof etishicha, "Vabo"ning mohiyati – Yevropa Qarshilik harakatining nasistlarga qarshi kurashidir"[5]. Asar yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalardan retseptientlar asarni turlicha talqin qilishlari, bunga davr va sharoit ta'sir qilishi mumkin ekanligini alohida ta'kidlash lozim. Natijada retseptientlarda asarning turli hil retsepsiyasi shakllanadi.

N.Eshonqulning "Tobut" hikoyasi mavzu va g'oyaviy jihatdan Kamyuning "Vabo" (La Peste) asar syujetiga judayam yaqin. Shu o'rinda "Vabo" (La Peste) ni "Tobut" hikoyasi bilan qiyosiy tahlil qilish lozim deb hisoblaymiz. Zero bunday tahlillar asarlarning badiiy-estetik qimmatini haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishiga imkon yaratadi.

Hikoyani to'satdan o'lat tarqagan chekka bir shaharni tekshirishga jalb qilingan guruh a'zosi, me'morchilikda havaskor yosh yigit so'zlab beradi:

"Odamlar ishlab turgan yoki uxlab yotgan joylarida, ba'zan suhbatlashib turib to'satdan jon taslim qilishyapti. Avvaliga biz bular hammasi shunchaki tasodifiy deb o'ylagandik. Biroq o'lim tobora ko'payavergach, tashvishga tushib qoldik. Maxsus emlash o'tkazdik, voqeaning tagiga etish uchun barcha kasalxonalarimizni nazorat ostiga oldik, bir necha marta uylarni yoppasiga ko'rikdan o'tkazdik, ammo natija bo'lmadi - o'lim to'xtamadi. Aksincha, uylar asta-sekin bo'shab qolayapti. Odamlarni vahimaga tushirmaslik uchun bo'shagan uylarga yangi odamlarni ko'chirib olib keldik, baribir foydasi bo'lmadi. O'lim yangi ko'chib kelganlarni ham ayamayapti. Markazdan ham, muzofotdan ham maslahatchilar chaqirib bir necha marta tibbiyot kengashlari o'tkazdik. Biroq ular ham elka qisishdan nariga o'tishmadi. Hozir o'lim deyarli har bir binoda o'zining asoratini qoldirgan. O'zimizning vrachlar hech qanday xulosaga kelishgani yo'q, ular yuqumli kasallikdan darak beradigan biron alomat topishmadi. Butun umid hozircha sizlardan..."

- Bunday hodisa Faranglarda ham bir paytlar bo'lgan, - dedi guruh rahbari qilib jo'natilgan professor shahar boshlig'ining tuguntirishidan ensasi qotgandek, - hamma balo tibbiyotimizni savodsiz va qobiliyatsiz odamlar bosib ketganida. Boshqa sabab yo'q..."[6]

Yuqorida keltirilgan parchadan "Tobut" hikoyasidagi voqealar rivoji "Vabo" (La Peste) romanida tasvirlangan Oran shahridagi vabo manzarasini takrorlaganligini payqash qiyin emas. Kamyu Oran shahrida tarqalgan epidemiyaning shunday tasvirlaydi:

"Hatto shahar markazida ham zina dolonchalari, hovlilarda gala-gala o'lib yotgan kemiruvchilarni uchratish mumkin edi. Ayrim nusxalari hatto hukumat binolari kiraverishlariga, maktab hovlilariga, goho qahvaxonalarga sudralib chiqib jon berardi... Tongda shahar o'laksadan tozalanar, ammo kunduzi yana kalamush o'ligi to'planib, borgan sari ko'payib boraberar edi..."

Shu paytgacha tinchgina yashab kelayotgan shahrimizning qanday esankirab qolganini, bu kunlar uni qanday dovdiratib qo'yganini tasavvur qiling; shu paytgacha tomirlarida tinchgina oqayotgan qoni birdan junbushga kelgan odam shunaqazahvolga tushadi" [7].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu asarlarning voqealarida ko'tarilgan va tasvirlangan muammolar va ularni hal etish uchun oldinga surilgan g'oyalar mushtarakligi bir-biriga o'xshash qahramonlarning paydo bo'lishiga olib kelgan. Hikoyani o'qishni boshlagan boshqa xalq vakili birinchi navbatda hikoya sarlavhasini va uning bosh g'oyasi bo'lgan "Tobut" so'zini retsepsiya qilishi kerak bo'ladi. Hikoyadagi shaharda vabo tarqalishining sababi uning loyihasi tobut ko'rinishida ekanligida, aynan shuning uchun ham uchun shaharda vabo tarqalib ko'plab insonlar vafot etadi. Hikoya so'ngida shahardagi o'lat sababi tobut ko'rinishidagi shahar loyihasi ekanligi ayon bo'ladi. Demak hikoyaga yuklangan bosh g'oya retsepsiyasi uchun retseptient aynan musulmonlarni ohirgi manzilga eltuvchi tobutni ko'z oldiga keltirishi kerak albatta. Chunki o'zga millat kitobxoni oz' xalqi uchun ishlatiladigan tobut (masalan xristianlardagi "rpo6") ko'rinishini tasavvur qiladi. Natijada asarning bosh g'oyasi noto'g'ri dekodlanadi va noto'g'ri retsepsiya qilinadi. Demak, turli millat kitobxonlari aynan Nazar Eshonqul tasvirlagan shaharning tobut ko'rinishini to'g'ri tasavvur qilishi kerak bo'ladi. Badiiy asarlarda tasvirlangan milliylikning retsepsiyasida, tadqiqotda taklif qilingan milliy retsepsiya muhim ahamiyat beradi deb hisoblaymiz.

Boshqa tomondan esa, hikoyada tasvirlanganidek shaharning tobut shaklida qurilgani uchun ham, shahar aholisining vaboga chalinganligi aqlga sig'maydi, ammo Nazar Eshonqul badiiy shartlilikdan kelib chiqib, bunga o'quvchini ishontiradi: aynan shahar – tuzum, muhit timsoliga aylanadi. Demak, tobut shaklida qurilgan shahar timsolida muallif Sho'rolar tuzumi, shaharda tarqalgan badbo'y hid orqali sho'rolar mafkurasi ramzini yaratgan, degan xulosaga ham kelish mumkin. Alber Kamyu ham Nazar Eshonqul ham yaratgan asarlarining asl tagma'nosining anglab yetishni kitobxonning o'ziga qoldiradi. Demak birinchi navbatda asarlarning talqini kitobxon retsepsiyasiga bog'liq va asar xulosasini aynan o'zi shakllantiradi.

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, "Vabo" romani va "Tobut" hikoyasi mavzu va g'oyaviy jihatdan bir- biriga yaqin. Shu nuqtai nazardan Nazar Eshonqulning badiiy-estetik tafakkurining shakllanishida Alber Kamyuning falsafiy qarashlari o'z ta'sirini o'tkazgan deyish mumkin. Yozuvchi Nazar Eshonqulning o'zi bu borada shunday deydi: "Men Kamyuni ham Sartrni ham o'qiganman va ular mansub oqimni o'zimga ancha yaqin olaman. Ekzistensializm bilan tasavvurimda yaqinlik ko'p. Mavjudlik falsafasi, avvalo, bu "men" lik falsafasidir"[8]. Vabo" romani va "Tobut" hikoyasidagi voqealar rivojidan vabo singari ofat loqaydlik, befarqlik avj olgan har qanday jamiyatda ro'y berishi mumkin, degan xulosa kelib chiqadi. Demak, Alber Kamyu va Nazar Eshonqul o'zlarinig bu asarlari orqali inson ma'naviy barkamolligining asosiy kushandasi hisoblangan loqaydlikni, uning sabablari hamda u keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan muammolarni tasvirlashga urinishgan va buni uddalashgan. Bunday asarlar insonlarni jipslashishga, iroda, kuch va umid bilan yashashga intilish hamda kurashishga undaydi deb hisoblaymiz.

Xulosa qilib aytganda, Xurshid Do'stmuhammad va Nazar Eshonqul o'z asarlari orqali yangicha tasvir, teran falsafiy-badiiy talqin, qahramon ruhiyatini ifoda etishga intilish kabi xususiyatlarni asosiy tendensiyaga aylantirgan yozuvchilardir. Ular yaratgan asarlar Alber Kamyu ilgari surgan g'oyalar, xususan, tabiat va inson har taraflama birdam ekanini ifoda etuvchi falsafiy-estetik va ma'rifiy qarashlardan ilhomlanish samarasidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Елўқ М. Озод кўнгил ҳикояси. // Шарқ юлдузи журнали. 2017. 8-сон. – Б.144-147.
2. A. Camus. Carnets I, mai 1935 — février 1942. – Paris: Gallimard, 1964. – P.52.
3. <https://www.unicef.org/uzbekistan>. Murojaat sanasi. 16.07.2000
4. Саидов А. Қиёсий адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2020. – Б.23.

TILSHUNOSLIK

5. Grenier R. Albert Camus. Soleil et ombre. Paris: Gallimard, 1987, – P. 9.
6. Эшонкул Н. Маймун етаклаган одам. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004. – Б. 107.
7. Камю А. Вабо. –Тошкент: Ёзувчи, 1995. – Б. 94.
8. Умид Али ва Назар Эшонкул суҳбати. Санъат қалб ва руҳни қутқаради / *O'zbekiston adabiyoti va san'ati* gazetasi 2007. 24 avgust. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/nazar-eshonqul-suhbat.html>.